

7-mavzu: Turli shakl va fakturali uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan murakkab bo'lmagan natyurmort.

Mashg'ulot rejasi:

Vaqt – 16 soat	Talabalar soni:8-12 nafar
O'quv mashg'ulotningn shakli	Amaliy ish bajarish.
Laboratoriya mashg'ulotini rejasi:	1.Shakl va fakturalar haqida tushincha. 2.Turli shakl va fakturali uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan murakkab bo'lmagan natyurmort qo'yilmasi 3. Natyurmort qo'yilmasini tahlil qilish va qog'ozga to'g'ri joylashtirish, qurish. 4. Natyurmort qo'yilmasining qalamtasvirini bajarish. 5. Nur, soya, yarim soya, tushuvchi soya, hamda shaxsiy soyalar orqali buyumlarni to'g'ri tuslashga o'rgatish. 6.Qo'yilmani chizishning yakuniy bosqichini amalga oshirish, umumlashtirish va yakunlash.

Mashg'ulotningn maqsadi: Turli shakl va fakturali uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan murakkab bo'lmagan natyurmort.

Pedagog vazifasi:	O'quv natijalari:
Shakl va fakturalar haqida tushincha. beradi	Shakl va fakturalar haqida tushincha. ega bo'ladi
Turli shakl va fakturali uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan murakkab bo'lmagan natyurmort qo'yilmasini qo'yish va vazifani tushuntirish. Baxolash me'zoni bilan tanishtiradi	Vazifani tushunadi. Baxolash me'zoni bilan tanishadi.
Natyurmortni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va qurishni o'rgatadi. (Masterklass)	Natyurmortni qog'ozga to'g'ri joylashtirish va qurishni o'rganadi
Soya-yorug' munosabatlarini toppish va shtrixlashni o'rgatadi.	Soya-yorug' qismlarini topadi va shtrixlaydi.
Qo'yilmani chizishning yakuniy bosqichini amalga oshirish, umumlashtirish va yakunlashni o'rgatadi	Tasvirni umumlashtiradi va yakunlaydi
O'qitish vositalari:	Kompyuterda taqdimot, gips naqishli rozetka ishtrokida natyurmort, repraduksiylalar, oq qog'oz tortilgan planshet, qalam va boshqa jixozlar.
O'qitish shakli:	Individual yondashuv
O'qitishning shart-sharoitlari:	Dastgohli laboratoriya auditoriyasi va chizish anjomlari. Kompyuter vositasi.
Monitoring va baholash:	Amaliy ish natijalari tahlili.


7-Amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish	1.1.Yangi mavzuni, uning rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadini va o'quv faoliyatidan kutilayotgan natijalarini tushuntiradi.	Tinglaydilar, mavzu va uning maqsad vazifalari aniqlanadi. Vazifani bajarishga tayyorgarlik ko'radi.
	1.2. Mashg'ulotning bajarish bosqichlari tushuntiriladi, o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qilinadi	Eshitadi va yozib oladi.
2-bosqich Asosiy	2.1. Talabalarning e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash og'zaki savollar beriladi. Javoblarni birgalikda umumlashtiradi.	Eshitadi, savollarga javob beradi va umumlashtirilgan to'g'ri javobni eshitadi.
	2.2. Qo'yilma haqida asosiy tushunchalar beriladi, unga misollar keltirilgan slaydlar namoyish qilinadi.	Ko'radilar va xulosalar chiqariladi
	2.3. Soya-yorug' munosabatlari belgilanadi va shtrixlash bosqichi amaliy ko'rsatiladi	Soya-yorug' munasabatlari topiladi va qo'yilmani tuslaydi.
	3.1.Natyurmortni detallashtirish ko'rsatiladi.	Natyurmort buyumlarini alohida ishlaydi
3-boskich Yakuniy	Qo'yilmani chizishning yakuniy bosqichini amalga oshirish, umumlashtirish va yakunlashni o'rgatadi	Tasvirni umumlashtiradi va ishni yakunlaydi.

Turli shakl va fakturali uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan murakkab bo'lmagan natyurmort.


Bu qo'yilmadan asosiy maqsad - turli buyumlarni tus vositalari orqali tasvirlash, buyumlar shakli, rangi, tuzilishi, fazoviy holati jihatidan birbiridan farq qilishiga ahamiyat berish. Qo'yilmadagi buyumlarning o'lchovlari turlicha bo'lishi maqsadga muvofiq. Kichikroq buyumlar oldinroqda, yiriklari orqaroqda tasvirlanadi. Natyurmort kompozitsiyasini to'g'ri topish maqsadida alohida kichik o'lchamda xomaki tarzda chizib ko'riladi. Rasm kompozitsiyasi topilgandan so'ng, asosiy ishga o'tiladi. Qo'yilmani chizganda undagi hamma buyumlarni bir yo'la tasvirlash lozim. Aks holda rasmda bir buyumning o'lchovi kattaroq, ikkinchisidiki esa kichikroq bo'lib, rasm kompozitsiyasi buziladi. Shuning uchun qo'yilmadagi barcha buyumlarning umumiy balandligi va eni qog'ozda yordamchi chiziqlar bilan belgilab olinadi. So'ng naturadagi har bir buyumning o'lchov jihatidan o'zaro farqi, oralaridagi masofa, soya va yorug'larning farqi, ranglarini ko'z bilan chamalab aniqlashga o'tiladi. Qo'yilma ufq chizig'idan pastroqda joylashtirilgan. Avval uning gorizontallik tekisligi aniqlanadi. Gipsli naqsh orqaroqda va balandlikda o'rnatilgan, mis qumg'on va sopol piyola oldingi planda joylashgan. Keyin sopol piyola va mis qumg'onning umumiy shaklini bildiruvchi chiziqlar hamda simmetrik o'qlar va naqshli gips modelining taxtachasida asosiy belgilab chiziladi. So'ngra piyola va mis qumg'onning ustki, pastki asoslari va naqshning yon tomon yo'nalishlari perspektiva qonuniyatiga asoslanib belgilanadi. Naqsh gulining turgan joyini aniqlash uchun taxtachasida asosiy o'rtasidan yordamchi profil chiziq yuritiladi. Mis qumg'on simmetrik shakldagi buyum hisoblanib, u silindr va shar shakllaridan tashkil topgan.

O'tkazilgan simmetrik o'qdan qumg'onning balandligi hamda enining o'lchami topiladi. Qumg'on ufq chizig'idan bir oz pastroqqa qo'yilgani uchun uning ustki va ostki asoslari ellips shaklida ko'rinadi. So'ngra qumg'on bo'yi va enini belgilovchi chiziqlarni tutashtirish orqali umumiy shakl topiladi. Milliy naqsh gulining shakli yirik yaxlit qismidan mayda bolaklariga tomon ketma-ketlikda bajariladi. Taqqoslash usuli orqali bo'laklarning bir-biriga va umumiy nisbatlari aniqlab boriladi. Bu bosqichda buyumlarning ko'rinmas chiziqlari ham chiziladi. Bu usul buyumlarning fazodan o'rin olib turganini ko'rsatishda talabalarni yanglishtirmaydi. Buyumlarni chizish yorug'lik va soya qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Albatta, naturadagi buyumlarning o'rtasidagi och-to'qlikning farqini saqlagan holda hamda materiallik fakturasini ko'rsatib tasvirlash kerak. So'ngra oldingi va orqa planda joylashtirilgan buyumlarning tus munosabatlari umumlashtiriladi.






Turli
predmetlardan tashkil
topgan natyurmort an'anaviy
usulda qo'yilgan. Yo'g'ri
o'rnatilgan yorug'lik muhiti
hosil qilinib, natyurmortdagi
shakllarni ifodali
ko'rinishiga yordam beradi.



Some gourds and
a string of garlic on a shelf.
A traditional subject
organized in a traditional
way. In addition, the strong
lighting and chiaroscuro
create an atmosphere that is
appropriate for the
appearance of the subject.
(P.Tomas, A.taylor
Drawing, London-2011,)






Mavzuga oid reproduksiylar











Baholash mezonlari

Joylashtirish	Qurish jarayoni	Xarakterli tomonlarini topish	Soya-yorug' munosabatlari to'g'ri topilganligi	Tasvirni bir butunlikda umumlashtirilganligi va tugallanganligi	Jami ball
1 ball	1 ball	1,5 ball	1,5 ball	2ball	7

6,6- 7 ball – «a'lo».

5,1 – 6,5 ball – «yaxshi».

4,5 -5 ball – «qoniqarli».

Foydalaniladigan darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yhati

- 1.Boymetov B. Qalamtasvir. Darslik “Musika” nashriyoti -2006. 74-76 betlar
- 2.Paul Thomas, Anita Taylor. Drawing, London-2011
3. Boymetov B «Qalamtasvir» Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, “Moliya-Iqtisod” 2010. 59-63 betlar

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. tdpu.library.uz